
BILASIZMI?

Kun tarixi: energetiklar bayrami nima uchun 22 dekabrda nishonlanadi?

22 dekabr – eng qisqa kun va eng uzun tun. Shu kuni sayyoramizning bosh energetigi – quyosh bizga eng kam yorug‘lik va issiqlik ulashadi.

Energiya iste‘moli eng ko‘p bo‘ladigan bu kunda ayrim MDH mamlakatlarida energetika sohasi xodimlari kasb bayramini nishonlaydi. 22 dekabr Ukraina, Belarus, Qirg‘iziston, Rossiya, shuningdek, O‘zbekistonda ham energetiklar bayrami, deb e‘lon qilingan.

Albatta energetiklar kasb bayrami atayin eng qisqa kun bo‘ladigan sanaga moslangan emas. Avvallari bu kun dekabrning uchinchi yakshanbasiga to‘g‘ri kelar edi. Qozog‘istonda hozir ham shunday. Biroq 1980 yilda sana ta‘sis etilgan qarorda bayram kuniga belgilangan. Shu sababli mazkur sana aynan 22 dekabr sifatida belgilangan. Buning tarixi esa 1920 yilning dekabrda GEOLRO rejasi qabul qilingani bilan bog‘liqdir.

2021-12-22 09:54:14